

**QORAXONIYLAR DAVLAT BOSHQARUVIDA QO‘LLANILGAN
“ARSLONXON” UNVONI XUSUSIDA**

Maxmudov Bexzod Xamidovich

Toshkent xalqaro moliyaviy boshqaruv va texnologiya universiteti “Ijtimoiy-gumanitar fanlar va tarix” kafedrasi dotsenti, tarix fanlari nomzodi

E-mail: bekzod.makhmudov123@gmail.com

Annotatsiya: ushbu maqolada Qoraxoniylar davlat boshqaruvida hoqon nomlarida ulug‘lovchi unvon sifatida qo‘llangan “arslonxon” atamasi xususida so‘z ketib, mazkur unvonning qo‘llanishi nafaqat davlat boshqaruvi bilan balki turkiylarning qadimiy diniy qarashlari va ijtimoiy-madaniy munosabatlari bilan bog‘liq ekanligi tahlil etilgan.

Kalit so‘zlar: Qoraxoniylar, oliy hokimiyat, mahalliy hokimiyat, qoraxon, buyuk xon, bug‘raxon, tavg‘achxon, Satuk Qoraxon, tonga, Ko‘k tangri, qarluq, chig‘il, xalach, yag‘mo, Abulg‘oziyxon, Qubilay.

**О ПРИМЕНЕНИИ ДОЛЖНОСТИ АРСЛАНХАН В
ГОСУДАРСТВЕННОМ УПРАВЛЕНИИ КАРАХАНИДОВ**

Махмудов Бехзод Хамидович

Кандидат исторических наук, доцент кафедры «Социально-гуманитарных дисциплин и истории» Ташкентского международного университета финансового менеджмента и технологий

E-mail: bekzod.makhmudov123@gmail.com

Аннотация: в данной статье говорится о термине “арсланхан”, использовавшемся в качестве почетного титула в именах хаканов периода Караханидского государственного управления, и анализируется тот факт, что использование этого титула связано не только с государственным

управлением, но и с древними религиозными воззрениями и социокультурными отношениями тюрков.

Ключевые слова: Караханиды, верховная власть, местная власть, карахан, великий хан, буграхан, тавгачхан, Сатук Карахан, танга, Кок Тенгри, карлук, чигил, халач, ягмо, Абулгазихан, Кубилай.

ON THE USE OF THE POSITION OF ARSLANKHAN IN THE STATE ADMINISTRATION OF THE KARAKHANIDS

Makhmudov Bekhzod Khamidovich

Candidate of Historical Sciences, Associate Professor of the Department of Social and Humanitarian Disciplines and History of the Tashkent International University of Financial Management and Technology

E-mail: bekzod.makhmudov123@gmail.com

Abstract: *this article discusses the term “arslankhan”, which was used as an honorary title in the names of khakans during the Karakhanid period of state administration, and analyzes the fact that the use of this title is associated not only with state administration, but also with ancient religious views and socio-cultural relations of the Turks.*

Keywords: *Karakhanids, supreme power, local power, karakhan, great khan, bugra Khan, tavgach Khan, Satuk Karakhan, tanga, Kuk Tengri, karluk, chigil, khalach, yagmo, Abulgazikhan, Kubilai.*

Kirish. Qoraxoniylar davlati ulkan saltanat darajasiga erishganidan so‘ng, (XI-XII asr) uning davlat boshqaruvida ham o‘ziga xos tartib-qoidalar yuzaga keldi. Bu davlat boshqaruviga oid tartib-qoidalar turkiy xalqlarning davlatchilik tajribasida avvaldan mavjud bo‘lib kelgan bo‘lsa-da, uni mazmun-mohiyat jihatdan yangicha yo‘sinda takomillashtirishda qoraxoniylar katta hissa qo‘shishdi.

Qoraxoniylar davlatining davlat boshqaruvini asosan ikki pog'onali tizimga bo'lish mumkin. Unga ko'ra, birinchi pog'ona markaziy davlat boshqaruvi hisoblanib, uni odatda «oliy hokimiyat», deb nomlasak, ikkinchi pog'onani esa «mahalliy hokimiyat» tashkil etgan. O'z o'rnida u ham bir necha bosqichga bo'linadi. Qoraxoniylar davlati tepasida butun oliy hokimiyatni o'zida mujassam etgan «buyuk xon», qoraxon turgan. Hoqon nomlarida unvon sifatida «qoraxon» atamasi bilan birga «bug'raxon». «arslonxon» va «tavg'achxon» kabi boshqa ulug'vor unvonlar ham birday qo'llanilgan. Bu unvon sifatida qo'llanilgan atamalarning ba'zilar qabila totemlari bilan bog'liq bo'lsa, ba'zilar esa mazmun jihatdan yuksak nufuz va darajani anglatgan.

Materiallar va tadqiqot usullari. Quyida biz davlat hukmdori nomida unvon sifatida qo'llanilgan mazkur atamalardan biri xususida alohida atroflicha to'xtalib o'tishni joiz, deb topdik. Chunki unvon sifatida qo'llangan bu atama shunchaki jarangli nom bo'lmasdan, balki shu davrning ijtimoiy-siyosiy va mafkuraviy hayotini ham o'zida aks ettiruvchi chuqur mazmunga ega bo'lgan.

Tarixdan ma'lumki, diniy e'tiqod inson faoliyatida qadimdan muhim ahamiyatga ega bo'lib kelgan. Inson dastlabki vaqtda o'zining turmush-tarzi va mehnat jarayonini rivojlantirib borish bilan birgalikda diniy qarashlarini ham shakllantirib bordi. Keyinchalik inson hayotida siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarning taraqqiyoti davomida bu diniy qarashlar endilikda butun qabila, elat va xalqlarning o'zaro bog'lab turuvchi uzviy e'tiqodiga aylanadi.

Biz diniy e'tiqodni insonning siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy hayoti bilan bog'liq holda tasvirlamoqdamiz. Chunki har bir xalqning ongida shakllangan bu diniy qarashlarning ta'sirini bevosita shu xalqning oddiy turmush-tarzidan tortib, to

uning davlatchilik an'analarida ham kuzatishimiz mumkin. Bu hodisadan turkiy xalqlar ham mustasno emas, albatta. Turkiy qavmlar o'z sulolalari boshchiligida ko'plab davlatlarni tashkil etish barobarida, o'zlariga xos bo'lgan diniy dunyoqarash bilan bog'liq udumlarini shu davlatchilik an'analarida ham qo'llab kelishgan. Jumladan, Qoraxoniylar davlatchiligi tarixida hoqon nomiga turli ulug'lovchi unvonlar qo'shib aytilgan. Bu unvonlarning aksariyati esa qabila totemlari bilan bog'liq bo'lib, qabilaning ibtidosi hisoblangan totem nomi unvon sifatida hoqon nomi o'rnida qo'llanilgan.

Ma'lumki, Qoraxoniylar davlati tashkil topgach, o'zining siyosiy faoliyatini davom ettirayotgan vaqtda Movarounnahr va unga tutash hududlar aholisining asosiy qismi islom diniga o'tgan edi. Islom dini aynan shu davrlarda o'z rivojlanishining yuksak cho'qqisiga ko'tarilib, alohida madaniyat tusiga kirib bordi. Bu jarayonlar esa, o'z navbatida Qoraxoniylar davlati tarkibidagi turkiy qabilalarga ham ta'sir etib, Movaroun-nahrning o'troq aholisi bilan etnik madaniy aloqalar natijasida ular ham asta-sekin islom dinini qabul qila boshlashdi. Shunday qilib, islom dini ko'chmanchi va yarim ko'chmanchi aholi orasida ham keng tarqaldi. Movarounnahr va Xorazm o'lkalarida, ularning atrofida yashovchi chorvador qabilalar turg'un aholi bilan deyarli bir vaqtda islom diniga o'tgan edilar. Sirdaryo sohilida va uning shimolidagi mintaqalarda yashovchi ko'chmanchi qabilalar esa IX-X asrlar davomida islom dinini qabul qilganlar. Birgina 960 yilning o'zida 200 ming xonadon, ya'ni turkiy aholi islom diniga o'tgan edilar¹.

¹ Бартольд В.В. Двенадцать лекций по истории турецких народов Средней Азии. – М.: Наука, 1968. Соч. Т.V. – С. 69-74.

Qoraxoniylar davlati rahbarlari ham islom dini ahamiyatini chuqur tushunib yetgan holda, islom madaniyati rivojiga rahnamolik qilishdi. Jumladan, Satuk Qoraxon turkiy xonlarning ichida birinchi bo‘lib islom dinini qabul qiladi va shundan keyin uning musulmoncha nomi Abulkarim (to‘liq nomi va unvoni Abulkarim Satuk Qoraxon) bo‘ladi. Satuk Qoraxon davrida qarluq, chig‘il, xalach, yag‘mo va boshqa qabilalar birin-ketin islom diniga o‘tishgan². Bu hodisa albatta davlatning birlashuvida katta ahamiyatga ega bo‘lgan.

Biz so‘zni bevosita Qoraxoniylar davlati tarkibidagi aholini islom diniga o‘tish jarayonidan boshladik. Albatta, buning o‘ziga xos sabablari va qabila totemlariga bog‘liq jihatlari bor.

Gap shundaki, turkiy xalqlarda qadimdan mavjud bo‘lib kelgan Ko‘k tangri dini, shomonlik e‘tiqodi va totemistik qarashlarning izlari aynan shu davrlarda, ya‘ni Qoraxoniylar davlati islom diniga to‘liq o‘tgan vaqtda ham turkiy qabilalar ongida saqlanib kelgan. Buning tasdig‘ini esa xon unvonlarida aks etgan totem nomlaridan ham kuzatishimiz mumkin.

Islom dini turkiy qabilalar ongida eski diniy qarashlar uyg‘unligi asosida rivojlanib, o‘ziga xos xususiyat kasb etgan. Turkiy qabilalar shu davrga qadar sig‘inib kelgan Ko‘k tangri, shomonlik va totemistik qarashlar bu vaqtga kelib barham topgan bo‘lsa-da, uning belgilari saqlanib qolgan.

Natijalar va ularni muhokama qilish. Yuqoridagi mulohazaga tayanib aytish mumkinki, bu jihatlari bevosita Qoraxoniylar davlatining hukmdorlari nomida ham uyg‘unlashgan, ya‘ni Qoraxoniylar hoqonlari islomiy ism bilan

² Ўша жойда.
SJIF:5.219

birgalikda eski diniy qarashlar asosidagi qabilalar totemlariga bog‘liq nomlar bilan ham ulug‘lanib kelingan.

Ma’lumki, turkiy qabilalarda qadimdan totemistik diniy tasavvurlar mavjud bo‘lgan. Har bir qabilaning o‘z totemi bo‘lib, bu o‘sha qabilaning oddiy fikrlashini anglatmaydi, balki ular o‘z o‘tmishini bilishga intilganliklarini bildiradi¹. Bunga ko‘ra ular o‘z o‘tmishini biror totemga bog‘lab, u haqda turli diniy qarashlarni yuzaga kelishiga sabab bo‘lgan. Bu borada turkiylar ko‘p hollarda bo‘ri, arslon, tonga, bug‘ra kabi hayvon nomlarini tilga olishadi. Ushbu hayvon nomlari nafaqat totem sifatida qadrlangan, balki shu qabila sardorlarining uddaburonligi, shijoati, abjirligi, mardligi va qudrati kabi sifatleri ham shu hayvonlarga qiyoslangan holda ta’riflangan.

Shuning uchun turkiy xonlarning nomlari va unvonlarini tilga olganda, bo‘ri, arslon, tonga, bug‘ra kabi totem bilan bog‘liq ulug‘vor unvonlarni uchratamiz. Bu hodisa barcha turkiy davlatlarda bo‘lgani kabi Qoraxoniylar davlati hukmdorlari nomlarida ham mavjud bo‘lgan.

Qoraxoniylarda hoqonlar nomida ulug‘lovchi unvon sifatida keng qo‘llangan «arslon» unvoni haqida fikr yuritsak. «Arslon» (Sher) — bu o‘z nomidan ham anglanib turibdiki, hayvonot dunyosining podshosi, hukmdori sifatida ta’riflanib kelinadi. Turkiy halqlar ham qadimdan bu hayvonga e’tiqod qo‘yishib, o‘zlarining qudratli hukmdorlari nomlarini shu hayvon nomi bilan atab kelishgan. Manbalarda «arslon» nomi chig‘il qabilasining totemi, deb berilgan. Lekin nafaqat chig‘il qabilasida, balki boshqa turk qabilalari ham ushbu hayvonni

¹ Гумилев Л.Н. Қадимги турклар / Таржима, кириш сўз муаллифлари ва нашрга тайёрловчилар. Б. Ўрдабекли., А. Айритомий. – Тошкент: Фан, 2007. – Б. 90-91.
SJIF:5.219

muqaddas tutishgan. Ko'pgina afsonalarda arslon nomi tilga olinib, uning timsolida qudrat, shijoat, epchillik va hukmdorlik ramzi aks ettirilgan.

Shunday qilib, «arslon» totemi ham unvon o'rnida qoraxoniylarning hukmdorlari nomiga qo'shib aytilgan. Masalan, Satuk Bug'raxon o'g'illari-dan biri — Boytosh (Muso) Arslonxon ham shu unvon bilan ulug'langan. Aynan shu Musoning avlodi bo'lmish «aliylar» Qoraxoniylar davlati ikki qismga, ya'ni G'arbiy va Sharqiyga bo'linganda, G'arbiy qismiga hukmronlik qilishgan ².

«Arslon» unvonini yana Sulaymon ibn Yusuf Qodirxon, Muhammad ibn Nasr kabi xonlarning nomlarida uchratamiz. Umuman olganda, ushbu «arslon» atamasini to'g'ridan-to'g'ri hukmdor nomi o'rnida qo'llanilganini boshqa turkiy sulola vakillarida ham kuzatishimiz mumkin. Xususan, saljuqiylarning zabardast hoqoni Alp Arslon (1063-1072), anushteginiy-lardan Abulfath El Arslon (1156-1172), g'aznaviylar sulolasining so'nggi vakillarida bo'lmish Arslonshoh (1116-1119) kabi hukmdorlar shu ulug'vor nom bilan atalgan ³.

Albatta, «arslon» totemi ham unvon o'rnida kelib shu hukmdorning obro'e'tibori, shon-shuhratini anglatgan. Biroq, ushbu nomdagi xonlar doimo nomiga yarasha shukuhli bo'lavermagan. Masalan, manbalarga murojaat qilsak, Abulg'oziyxon quyidagi tarixiy voqeani qayd etgan: «Ul vaqtda Qarluqning podshohi Arslonxon tegan erdi. Ul Qubilay nuyonga qo'shilib, o'zining qizini bosh qilib ko'p peshkashlar bilan kelib, xonni ko'rdi. Taqi ont ichdi to o'lguncha bandalikdin bo'ynimni to'lg'amayin teb. Xon taqi o'z jamoatidin bir qiz berdi. Inoyat va shafqat qilib qaytardi. Toqi Chingizxon beklarina boqib aytdi: Muni nechuk Arslonxon teb bo'lur. Bu kundin so'ng muni Arslon sayroq tesunlar teb

² 2.Шониёзов К.Ш. Карлук давлати ва қарлуқлар. – Тошкент: Шарқ, 1999. – Б. – Б. 47.

³ Зиё А. Ўзбек давлатчилиги тарихи. – Тошкент: Шарқ, 2000. – Б. 313-314.

hukm qildi»⁴. Haqiqatdan ham shu davrda (XIII asr boshlari) Ila daryosi sohilidagi Qarluq davlati hukmdori bo'lgan Arslonxon Chingizxon oldiga bosh egib borgan.

Uning bundan boshqa maqbulroq yo'li va imkoniyati yo'q edi. Bu bilan u o'z qavmini muqarrar halokatdan saqlab qolgandi. Chingizxon Arslon nomini o'z o'rnida mustaqil qudratli hukmdor, deb tushungani uchun uning bu qilmishini, ya'ni itoatkorligini nazarda tutib, Arslonxon nomini kamsitib «Arslon sayroq tesunlar», deb buyruq bergan. Biz bu misollarni keltirish orqali aytmoqchimizki, «arslon» atamasi unvon va nom sifatida xon nomlariga shunchaki qo'yilmagan, balki bu unvon hukmdorning arslon kabi haqiqiy podshohlik qudratiga ega bo'lishini niyat qilgan holda berilgan.

Demak, Qoraxoniylar davlatining hoqonlari nomlarida «arslon» totemi ulug'lovchi faxriy unvon sifatida kelgan.

Xulosa sifatida aytish mumkinki, Qoraxoniylar davlati hoqonlari nomlarida ulug'lovchi unvon sifatida aks etgan qabila totemlari va hukmdorning nufuzi hamda darajasini oshiruvchi faxriy unvonlarning har biri o'z ma'nosi, mohiyati va ahamiyatiga ega bo'lgan. Bu shu unvon sohibi bo'lgan hoqonning nafaqat obro'-e'tiborini anglatgan, balki bu unvonlarning tub zamini, asosi, turkiy, davlatchilik tarixi bilan bevosita bog'liq bo'lib, u shu davlatning ijtimoiy-mafkuraviy hayotini ham o'zida aks ettirgan.

Biz ko'rib o'tgan barcha hoqon unvonlari ijtimoiy hayot bilan bog'liq bo'lib, bu uzoq jarayonlar mobaynida rivojlanib kelgan. Dastlab, bu urug', qabila totemi unvon sifatida shu qabilaning o'zida qo'llangan bo'lsa, keyinchalik qabilalar ittifoqi davlat darajasiga ko'tarilgach, bir qabilaga tegishli totem endi

⁴ Абулғозий Баҳодурхон. Шажарайи турк / Қ. Муниров нашри. – Тошкент: Чўлпон, 1992. – Б. 32.
SJIF:5.219

butun qabilalarni birlashtirib, uyushtirib turgan hoqonning nomida aks etgan. Hoqon nomida faxriy unvon oʻrnida qoʻllangan totemlar (bugʻra, arslon, tonga) davlat tarkibidagi qabilalarning hoqon siyosatida muhim ahamiyatga ega boʻlganligini koʻrsatadi. Lekin ushbu davlat oʻzaro qabilalar ittifoqidan tashkil topgan uyushma boʻlganligi uchun, ular oʻrtasidagi tenglik, hamjihatlilik va ittifoqchilik shartlaridan kelib chiqqan holda, hoqon nomlariga «buyuk xon», «ulugʻ xon» mazmunini beruvchi umumiy «qoraxon» unvoni ham qoʻshib aytilgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Бартольд В.В Двенадцать лекций по истории турецких народов Средней Азии. — М.: Наука, 1968. Соч. Т.V.19-192.
2. Гумилев Л.Н. Қадимги турклар / Таржима, кириш сўз муаллифлари ва нашрга тайёрловчилар. Б. Ўрда- бекли., А. Айритомий. — Тошкент: Фан, 2007. — Б. 499.
3. Шониёзов К.Ш. Қарлуқ давлати ва қарлуқлар. — Тошкент: Шарқ, 1999. — Б. — Б. 192.
4. Зиё А. Ўзбек давлатчилиги тарихи. — Тошкент: Шарқ, 2000. — Б. 368.
5. Абулғозий Баҳодурхон. Шажарайи турк / Қ. Муниров нашри. — Тошкент: Чўлпон, 1992. — Б. 191.
6. Маҳмуд Кошғарий. Девону луғотит турк / Тарж ва нашрга тайёрловчи С.М. Муталибов. — Тошкент: Фан, 1960. 1-жилд. — Б. 499; 1961. 2-жилд. — Б. 427; 1963. 3-жилд. — Б. 466.



7. Шониёзов К.Ш. Ўзбек халқининг шаклланиш жараёни. — Тошкент: Шарқ, 2001. — 462 б.